

HURMATLI HAMKASBLAR!

# MAKTAB VA HAYOT

JURNALIGA 2023 YIL UCHUN OBUNA DAVOM ETMOQDA

2023 yilda “MAKTAB VA HAYOT” jurnalida (ilovasi bilan) turli ilmiy-metodik, didaktik, me’yoriy hamda axborot materiallari quyidagi ruknlarda nashr etiladi:

- Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti
- Ta'limda psixologik xizmat
- Amaliy psixologiya
- Oila psixologiyasi
- Defektologiya va tibbiy xizmat
- Inklyuziv ta'lim
- Axborot texnologiyalari
- Texnologiya
- Sog'lom avlod uchun
- Ota-onalar maktabi

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Obuna indeksi: 1019**

Tahririyat telefonlari:  
tel / faks: 8 (0371) 246-21-02  
Web site: <http://www.tashxis.uz>  
E-mail: [maktabvahayot@sarkor.uz](mailto:maktabvahayot@sarkor.uz)

3  
2023

# MAKTAB VA HAYOT

Ilmiy-metodik jurnal



HURMATLI HAMKASBLAR!

# MAKTAB VA HAYOT

JURNALIGA 2023 YIL UCHUN OBUNA  
DAVOM ETMOQDA

2023 yilda “MAKTAB VA HAYOT” jurnalida (ilovasi bilan) turli ilmiy-metodik, didaktik, me’yoriy hamda axborot materiallari quyidagi ruknlarda nashr etiladi:

- Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti
- Ta'limda psixologik xizmat
- Amaliy psixologiya
- Oila psixologiyasi
- Defektologiya va tibbiy xizmat
- Inklyuziv ta'lim
- Axborot texnologiyalari
- Texnologiya
- Sog'lom avlod uchun
- Ota-onalar maktabi

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.


Obuna indeksi: 1019

Tahririyat telefonlari:  
tel / faks: 6 (037) 246-21-02  
Web site: <http://www.tashxisuz>  
E-mail: [maktabvahayot@sarkoruz](mailto:maktabvahayot@sarkoruz)

ISSN 2010-5460

# MAKTAB VA HAYOT

Ilmiy-metodik jurnal



# MAKTAB O'QUVCHISINGINING KUN TARTIBI QANDAY BO'LISHI KERAK?

Zamonaviy maktabdagi yuklamalar juda jiddiy ekanligi va ular maktab o'quvchilarining salomatliklariga ta'sir etishi o'qituvchilar uchun ham, ota-onalar uchun ham sir emas.

Maktab dasturi, o'qituvchilar va ota-onalarning barcha talablarini bajarishga ulgurishlari uchun bolalarga qanday yordam berish mumkin?



1. Bola aniq kun tartibiga amal qilishi kerak. U uy vazifasini o'z vaqtida bajarishi shart. Bolani uy vazifasini kunduzi mustaqil ravishda bajarishga o'rgating, kechqurun esa, bajarilgan masalalarni tekshirish hamda tushunarsiz bo'lgan mavzular va fanlarni o'zlashtirishda unga yordam bering.



2. Maktab o'quvchisining ovqatlanishi muvozanatlashtirilgan hamda vitaminlarga boy bo'lishi kerak. To'g'ri ovqatlanish nafaqat miya, balki oshqozon va rivojlana-yotgan butun organizm uchun ham juda foydali.



3. Bola tez-tez va uzoqroq vaqt toza havoda sayr qilishi lozim. Dam olish kunlari tabiat qo'yniga sayohat qilish mumkin. Zero, kislorod yetishmovchiligi miya faoliyatiga hamda bolalar salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Miyaning kislorod bilan yetarlicha to'ynishi maktabdagi qiyin vazifalarni uddalashiga yordam beradi.



4. Bola ko'proq harakatlanishiga imkon berish kerak. Kunduzgi jismoniy faollik tunda yaxshi uxlashiga va, umuman olganda, har qanday stressli holatlarga qarshi mustahkam va chidamlı bo'lishiga yordam beradi.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilish o'quvchiga maktab yuklamalarini osonroq yengib o'tishga, o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtirishga, ota-onalarga esa o'zlarining sevimli farzandlari uchun xotirjam bo'lishga imkon beradi.

**Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan ayrim tarixiy shaxslarga o'quvchilik paytida o'qituvchilar bergen tavsiflardan namunalar**

Shaxs	Yo'naliш	Ustozlar munosabati	Muvaffaqiyat
	fizika	Texnikumdagи fizika o'qituvchisi Jan Perne: "Albert, fizika naqadar qiyinligini tasavvur ham qila olmaysan. Yaxshisi tibbiyot, huquqshunoslik yoki falsafa bilan shug'ul-lansang bo'lmaydim?"	1921-yil fizika yo'naliшida Nobel mukofoti sovrindori
	biologiya	Sinf rahbarining ota-onaga yozgan xatidan: "Men, Djon olim bo'lmoqchi ekanini eshitdim, bu juda kulgili va bema'nidir. Axir u biologiya kursi bo'yicha birorta ham oddiy fakt ni eslab qololmaydi-ku"	2012-yil tibbiyot va fiziologiya yo'naliшida Nobel mukofoti sovrindori
	texnika	Maktab o'qituvchisi onasiga yozgan xatidan: "O'g'lingizning aqli zaif. Uni boshqalar bilan birga maktabda o'qita olmaymiz. Shuning uchun uni uyda mustaqil o'qitishingizni tavsiya etamiz"	1915-yil fizika yo'naliшida Nobel mukofoti sovrindori
	adabiyot	Sinf rahbarining tafsifnomasidan: "O'z xarakteriga ko'ra – qaysar, dangasa. Darslarda halaqt beradi. Uy vazifalarini yomon bajaradi. Daftarlari tartibsiz, besaranjom, kir, turli rasmlar chizib, yozuvlar yozib tashlangan"	1987-yil badiiy adabiyot yo'naliшida Nobel mukofoti sovrindori

## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHRIR HAY'ATI

Hilola UMAROVA

G'ayrat SHOUMAROV

Risboy JO'RAYEV

Shaxnoza XALILOVA

Komola FARFIYEEVA

Dilnozaxon ABDULLAJANOVA

Ayubxon RADJIYEV

Sharibboy ERGASHEV

Feruza QODIROVA

## Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

## Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

## Kompyuterda sahifalovchi

## va dizayn

Ilmira Adilova

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqrib qilinmaydi.

Muallifning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

## Muassislari:

O'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish va

psixologik-pedagogik

respublika tashxisi markazi

"MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda  
"MAKTAB VA HAYOT" dan olindi,  
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan  
chiqa boshlagan.

## MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziya ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI – 1019**



## MUNDARIJA

### SH.T. ERGASHEV.

Kasb-hunarlarni ongli ravishda tanlash – shaxs va jamiyat manfaati..... 2

### F.A. AKRAMOVA.

Barkamol avlod tarbiyasida oilaviy psixologik xizmatni qo'llash masalalari..... 4

### F.K. OLIMOVA.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali ijodiy faoliyatga tayyorlash..... 6

### E.U. XUDOYBERDIYEV.

Maktab ta'limini boshqarishda strategik rejalashtirish dolzarb muammo sifatida ..... 9

### R.M. ABDULLAYEVA.

Ta'lim va hayot sifatining kasb tanlashga bog'liqligi ..... 11

### S.S. JO'RAYEV.

Ota-onha qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunar tanlashga tayyorlash zarurati..... 13

### N.Z. ABIDOVA.

Bo'lajak logopedlarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish qonuniyatları va tamoyillari ... 15

### M.S. MAXMUDOVA.

Bolalarni nutqiy jihatdan maktab ta'limiga tayyorlashda korreksion-pedagogik jayronni tashkil etish yo'llari ..... 18

### Y.IO. FAIZIEVA.

Состояние доступности окружающей среды и возможности их создания для школьников и студентов в инклюзивном образовании..... 19

### N. DALIMOVA.

Sharq mutafakkirlarining barkamol avlod haqidagi qarashlari hamda o'quvchilarda hayotiy qadriyatlarni shakllantirish ..... 21

### D.O. MIRZAYEVA.

Ontogenetda sensomotor funksiyalarning rivojlanishi..... 23

### M. MANSUROV.

O'qituvchi kasbini tanlashda ta'lim va amaliyot integratsiyasining o'mi va ahamiyati ..... 25

### G.O. OCHILOVA.

Maktab o'quvchilarining innovatsion faoliyklarini rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati..... 27

### D.M. XAKIMOVA.

O'qituvchi innovatsion salohiyatining tuzilishi va uning funksional modeli ..... 29

### M. DEHQONOVA, Z. XUSNIDDINOVA.

Inklyuziv ta'limda ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish ..... 31

### D.M. MAXMUDOVA.

Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash ..... 32

### D.R. BABAYEVA, K.T. AYTURATOVA.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida baduy asarni sahnalashtirish texnologiyasi..... 34

### R.Sh. ALEYOVA.

Bolalarni vatanga e'tiqod va milliy qadriyatlardan ruhidagi tarbiyalash mazmuni ..... 36

### G. BAYTILEUOVA.

Maktabgacha ta'limming innovatsion tizimini tashkil etish ..... 38

### M.R. PO'LATXO'JAYEVA.

Koxlear implantlari bo'lgan bolalar ota-onalariga tibbiy-pedagogik maslahatlar ..... 40

### A.D. OSTANAQULOV.

O'smirlik davridagi ruhiy salomatlikni qiyosiy-empirik o'rganish ..... 42

### A.A. СУЛТАНОВА.

Гендерные особенности факторов риска суицидального поведения у подростков..... 44

### X.SH.YUNUSOVA, G.QAYUMOVA.

Innovatsion ta'lim klasteri muhitida bo'lajak defektoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash texnologiyalari..... 47



4. Kamiljanov B.I. Innovatsion menejment uslublarini takomillashtirish T.: Fan, 2007.

5. Zaynudinov Sh.N. Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, 2011 yil sentyabr.

6. Shvets I.M., Mariko V.V. O'qituvchilarning malakasini oshirish tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi // Axborotnomasi NNSU im. N.I. Lobachevskiy. Ta'lism sohasidagi yangiliklar seriyasi. 2005-yil. o'n olti). S. 189–2013.

## INKLYUZIV TA'LIMDA KO'RISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION PEDAGOGIK ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**M. Dehqonova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti, "Maxsus pedagogika" kafedrasи o'qituvchisi  
Z. Xusniddinova, mazkur universitetning 2-bosqich magistratura bosqichi talabasi**

Данная статья посвящена вопросу повышения эффективности коррекционно-педагогической работы с учащимися с проблемами зрения в условиях инклюзивного образования.

**Ключевые слова и понятия:** тифлопедагог, зрение, инклюзивное образование, развитие, социализация, профориентация.

This article is devoted to the issue of improving the effectiveness of correctional and pedagogical work with students with visual problems in the context of inclusive education.

**Key words and concepts:** typhlopedagogue, vision, inclusive education, development, socialization, vocational guidance.

Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan umumta'lism maktablarida maxsus pedagog sifatida **tiflopedagog** o'qituvchilar shug'ullanadi. Tiflopedagog o'qituvchi inklyuziv ta'lism joriy qilingan tashkilotlarda faoliyat yuritishi uchun maxsus (korreksion xonalar, ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi uchun texnik vositalar) sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak. Tiflopedagog o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri axloqiy ta'lmdir. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar o'z tanalarining anatomik xususiyatlari ota-onalari, tengdoshlarini va aka-ukalari bilan bir necha bor taqqoslab ko'radilar. Odatda, ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar axloqiy tushunchalar bo'yicha hech qanday ma'lumot olishmagan va bu bolalar ommaviy maktabga kelganda, o'zlarining tengdoshlaridan orqada qolishgan bo'ladi.

### Tiflopedagog o'qituvchining vazifalari:

1. Turli xil zamonaliv metodlar bilan birgalikda klaster metodi orqali o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirish hamda ta'limgarib tarbiya berish.

2. Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, jumladan, pedagogik va psixologik jihatdan o'rganish, nuqsonlarning turlarini aniqlashtirish, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlantirish;

3. Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning ta'limgarib tarbiysi maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarini qayta ishlash;

4. Bola shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun barcha maxsus mo'ljallangan ishlarni amalga oshirish.

5. O'quvchilarni mehnatga va kasb-hunarga yo'naltirish imkoniyatlarini yaratish.

6. Maxsus o'quv rejalar, dasturlar va darsliklarni tuzish.

7. Inklyuziv ta'limgarib qilingan maktablarni rivojlantirishni yo'lda qo'yish.

Umumta'lism maktablarida ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni davolash va tiklash ishlari okulist rahbarligida

amalga oshiriladi. Pedagog va tarbiyachilar ham shifokor tavsiyalarini o'z vaqtida bajarishga yordam beradilar. Ko'zoynak va boshqa optik ko'ruchchi korreksiyalovchi vositalarni tavsiya qilish davolash ishining asosi hisoblanadi. Pedagog va tarbiyachilar bolalarni ko'zoynaklardan shifokor tavsiya qilganidek to'g'ri foydalanishlarini nazorat qiladi. Ko'zoynakni to'g'ri tanlash muhim rol o'ynaydi. U yuz hajmini qorachiqlari orasidagi masofaga mos tushishi shart, qulqolarni, burunlarni qismasligi lozim.

Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning kelajakdag'i hayotga moslashuvni va o'z o'mini topib, to'liq ish bilan ta'minlanishidagi muammolar doimiy ravishda barchamizni birdek tashvishga solib keladi. Bu muammo faqat biringa bizda emas, butun dunyo mamlakatlarida kuzatiladi. Ushbu muammoli holatning yechimi mактабгача ta'limgardan boshlab korreksion rivojlantiruvchi va moslashish harakatlarini, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, qo'1 motorikasini rivojlantirish, atrof- muhitda o'zini idora qilish va boshqa hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga erishishdan boshlanishi zarur.

Maktab ta'limgarib jarayonida barcha fanlarni o'qitish bilan bir qatorda, boshlang'ich sinflardan boshlab kasbga yo'naltirish, imkoniyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda kasb tanlashiga erishish zarur. Yuqori sinflarda "Kasb-hunar ta'limi" jarayonida o'quvchilar kasblari bo'yicha umumiyligi ma'lumot olish bilan bir qatorda qiziqqan va o'zi uchun tanlagan kasbi haqida chucherqoq ma'lumot olishi uchun sharoit yaratilgan bo'lmog'i zarur. Bolalarni maktabgacha va kichik maktab yoshidan boshlab kasb-hunarga yo'naltirish ishlarni boshlash talab qilinadi. Bu ishlar ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni kelajakdag'i hayotlarda ish bilan ta'minlanishi uchun juda muhim hisoblanadi. Shu orqali ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotda o'z o'mini topishi, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, ota-onaga qaramlikdan chiqishi va eng asosiyasi nuqsonidan uyalmasligi



hamda ozgina bo'lsada nuqsonini esdan chiqarishiga olib kelish mumkin.

Har bir o'quvchi o'z oldiga maqsad qilib olib turli xil kasblardan birini tanlashi kerak yoki o'qituvchi hamda jamoa vakillari ma'lum bir kasb tanlashiga ko'maklashishi talab qilinadi. Shuningdek, har bir o'quvchi o'zi haqida, o'zining qobiliyatlari va potensiallari to'g'risida aniq tushunchalarni bilishi, zarur hollarda chetdan rivojlantirilishi kerak.

Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarga kasbiy bilim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor bering:

- o'z-o'zini anglashiga (kuchli va zaif tomonlari, maqsadlari, qiziqishlari va qobiliyatlari) yordam bering;
- kasblarga oid xabardorlik;
- ish izlash qobiliyatlari;
- ishga tayyorlanish (e'lonlarni topib xabardor bo'lish, ma'lumot olish, o'zi e'lon yozish, maxsus treninglardan o'tish);
- nogironligi bo'lgan o'quvchilarni ish bilan ta'minlash va bandlikka ko'maklashish markazlarini topish.

Ko'zi ojizlik o'quvchilarga o'zlar uchun zarur bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni, xatti-harakatlarni kuzatishi va hayotiy ko'nikmalarni o'rganishga halaqt beradi. Ko'zi ojiz o'quvchiga sog'lom tengdoshlari tevarak-atrofdagi voqealarini kuzatish va modellashtirish, ko'z bilan ko'rish orqali tabiiy ravishda o'rganadigan ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak bo'ladi.

## Adabiyotlar

1. "Inclusive teaching and learning for children with visual impairments" Teachers guide – Guy Le Fanu 2018.
2. U.Fayziyeva va boshqalar. «Tiflopedagogika» o'quv qo'llanma, «Sano-Standart» nashriyoti, Toshkent-2011.
3. «Inkluyativ ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. «Lesson-Press» nashriyoti, Toshkent-2022.

## ERTAKLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBOXONLIKKA TAYYORLASH

**D.M. Maxmudova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Maktabgacha pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi**

Данная статья направлена на подготовку детей дошкольного возраста к чтению посредством сказок, выявлению и внедрению эффективных методов развития речи детей.

**Ключевые слова и понятия:** дошкольное образование, чтение, сказки, творчество, подготовка, общение, игры, наглядность, инновация.

This article is aimed at preparing preschool children to read through fairy tales, identifying and implementing effective methods for the development of children's speech.

**Keywords and concepts:** preschool education, reading, fairy tales, creativity, preparation, communication, games, visibility, innovation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 2 mart kuni PF-5953-sون Farmoni bilan yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan muhim masala ilgari surildi. Shubhasiz, bu yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, yosh avlodning intellektual, axloqiy, estetik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida uzviylik, uzlusizlik masalasi jiddiy qo'yilmoqda. Shunday ekan kitobxonlikka tayyorgarlikni bolalikdan boshlash katta ahamiyatga ega.

Bolalarda bolalikdan kitobxonlikka qiziqishni tarbiyalash bo'yicha izlanishlar (F.R.Qodirova, F.O.O'rınova, Q.Quronboeva, D.Maxmudova, S.Chinova, T.A.Novikovalar) olib borilgan. Bu tadqiqotlar tarbiyalanuvchilarini ma'naviy-axloqiy, muomala madaniyatni, mehnatsevarlik va psixologik jihatdan tarbiyalashni, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimida batbiq etilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida bolalarni kitobxonlikka tayyorlash ta'lim-tarbiyaning muhim omilidir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ushbu masala dolzarb hisoblanib, o'z yechimini kutmoqda. Ushbu ishni joriy etishda bolalar adapiyoti, aniqrog'i maktabgacha yoshdagi bolalarga yaqin bo'lgan ertaklar mazmuniga ularni qiziqtirib, e'tiborlarini undagi predmetli, syujeti rasmlarga, harflar, bo'g'inlar, so'zlarga qaratib, kitobxonlikka, mutolaaga tayyorlashga erishildi.

Fikrimizcha, bolalarda badiiy adapiyotlardagi ertaklar matnini, ilk o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish uchun kitoblardagi ko'rgazmalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining mavzuviy rejasiga oid tarbiyalanuvchilar yoshiga, ularning atrof-olam haqida olgan bilimi, tasavvur, tushunchalariga binoan tashkil etilib, metodik jihatdan to'g'ri namoyish qilinishi lozim. Ko'rgazmali material yoqimli, jozibali, tushunarli, ertak mazmunini to'g'ri aks ettiradigan va shunga muvofiq uni qabul qilishga istak, xohish uyg'otadigan, o'yashga, fikr yuritishga, jumboqli